

**“МУТАФАККИРЛАР”**  
и.тмий-оммабоп рисолалар туркуми

Сарвархўжа БОБОЕВ

# АҲМАД ФАРГОНИЙ

Ўзбекистон Республикаси Ҳалқ таълими  
вазирлиги ҳузуридаги Республика таълим  
марказининг Тарих фани йўналиши бўйича илмий  
методик Кенгайш натарёга тавсия ётган

**«TAFAKKUR»** нашриёти  
Тошкент — 2010

72.3(5Ў)

Б79

**Бобоев, Сарвархұжа.**

Ақмад Фарғоний/С. Бобоев; таҳрир ҳайъати: У.Алімов ва бошқ.  
-Т.: «Тафаккур», 2010. - 96 б. - («Мутафаккирлар» илмий-оммабоп  
рисолалар түркүми).

ББК 72.3(5Ў)

**Таҳрир ҳайъати:**  
У.АЛИМОВ, У.УВАТОВ, А.ХАСАНОВ, Б.ТУРАЕВ,  
А.АЧИЛДИЕВ, К.НАЗАРОВ, М.КУРОНОВ, О.ЮСУПОВ,  
Н.ЖАЛБИРОВ, А.МУХТОРОВ.

*Бу рисолада буюк ватандошимиз, үртa асрнинг  
буюк қомусий олими, астрономия, математика,  
география ва бошқа илмий шүнгалишларда фаолият  
күрсатған, Шарқда Фарғоний, Европада Алфраганус  
(Alfraganus) таҳаллуслари билан машҳур бўлған  
Ақмад Фарғоний ҳақида маълумотлар түпланган.*

*«Мутафаккирлар» илмий-оммабоп рисолалар  
туркүми Имом Бухорий халқаро маркази ва  
«Тафаккур» нашриётининг қўшима лойиҳасидир.*

ISBN 978-9943-372-23-8

© «Имом Бухорий халқаро маркази»  
© «ТАФАККУР» нашриёти, 2010.

Ahmad Farg'oniy

---

*Бизнинг тарихимиэда жаҳонга донг тарат-  
ган улуг мутафаккирлар ўтган экан, уларнинг  
қолдирған илмий маънавий-мероси, ибратли  
ҳаёти, таълимоти буғунги муаммоларни ечиши-  
да бизга қўл келаётган экан, бу меросни ўрган-  
масликка, таърифламасликка, тарзиб этмас-  
ликка ҳақимиз йўқ.*

*Ислом КАРИМОВ*

Аҳмад Фарғоний

## АҲМАД ФАРҒОНИЙ (797-865)

### Исми-шарифи

Унинг тўлиқ исми Абул Аббос Аҳмад ибн Мухаммад ибн Касир Фарғонийдир.

### Қаерда, қачон туғилган?

Олимнинг исми фан тарихида машхур бўлишига қарамасдан, унинг ҳаёти ва илмий фаолияти ҳақида маълумотлар жуда оз. Унинг туғилган жойи Фарғона водийсининг Қубо (Кува)<sup>1</sup> қишлоғи бўлиб, туғилган йили мантиқий ҳисоблар натижасига кўра, 797 йил<sup>2</sup> деб топилган.

<sup>1</sup> Ўзбекистон: ислом обидалари. Фотоальбом –Т.: Ўзбекистон, 2002. Б.256.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005. 9-т.

Aхмад Farg'oniy

## **У зот ким бўлган?**

Аҳмад Фарғоний ўрта асрнинг буюк қомусий олими. Шарқда Фарғоний, Европада Алфраганус (Alfraganus) тахаллуслари билан машҳур бўлган олим астрономия, математика, география ва бошқа илмий йўналишларда фаолият қўрсатган.

## **Қандай даврда ва муҳитда яшаган?**

Аҳмад Фарғонийнинг ҳаёти ва илмий фаолияти тўғрисида жуда оз, у ҳам бўлса, узук-юлуқ маълумотлар етиб келган.

Аҳмад Фарғоний даврида Фарғона ҳар томонлама ривожланган, мустаҳкам иқтисодий ва сиёсий пойдеворга эга бўлган, маданий ҳаёти ниҳоятда такомиллашган ва бой воҳалардан бири бўлган эди. Фарғонанинг нафақат Ўрта Осиёда, балки

бутун Араб халифалигидаги мавқеига ҳар қандай давлат ҳавас килса, арзигулик бўлган. Ҳатто Араб халифалари саройида ҳам Фарғонадан етишиб чиқкан катта-катта амалдорлар энг муҳим мансабларни эгаллашган. Бу ўринда факат Аҳмад Фарғоний эмас, балки қўплаб ҳарбий амалдорлар, йирик савдогарлар, санъат ва адабиёт намояндадари ўрни назарда тутилмоқда. Ваҳоланки, шуларнинг ўзи ҳам Араб халифалиги даврида Фарғонанинг ўрни қай даражада юқори бўлганлигига далолатdir.

714-715 йиллари қўшинбоши Кутайба ибн Муслим бошлилигидаги ислом араб лашкари Фарғонани ишғол қиласди. Улар Фарғонада муқим яшаётган аҳоли ўртасида ислом дини ва араб тилини ўргата бошлайдилар. Унгача Фарғона халқи буддавийлик, зардуштийлик.

манихейлик эътиқодларига риоя қилар эди. Фарғоналикларни исломга ўтказиш деярли юз йил давом этган. 819-820 йилларда араб халифаси Маъмун Фарғонани Бухородаги ўзига қарам сомонийлар ҳокимияти ихтиёрига ўтказади. Шу йўсинда Фарғона ўлкаси жуда катта ерларни ўз ичига олган араб халифалигининг шарқий вилояти бўлиб қолади. Бу вақтлар араб халифалигининг худуди Farбда Misр, Maғrib (Шимолий Африка) орқали то Испаниягача, Шарқда эса Эрон, Xурросон, Мовароуннахр орқали Шош ва Фарғонага қадар чўзиларди. Бағдод шаҳри — халифаликнинг маркази эди<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Абдулаҳатов Н., Ҳонимов Б. Аҳмад Фарғоний. “Фарғона” пашриёти, 1998. Б.3-5.

Аҳмад Фарғоний

## Аҳмад Фарғонийнинг ҳаёти ва ижодий сафарлари

Аҳмад Фарғоний Халифа Хорун ар-Рашид (786-809) ворислари ал-Маъмун (813-833), Муътасим (833-842) ва Мутаваккил (846-861) ҳукмронлик қилган йилларда яшаган ҳамда аввал Марв, сўнгра Бағдод, Дамашқ ва Қоҳира шаҳарларида илми ҳайъат (фалакиётшунослик – астрономия), риёзиёт (математика) ва жўғрофия (география) фанлари билан шуғулланган.

Аҳмад Фарғоний даставвал (тах. 811 й.) Фарғонадан Марвга келган. Илк ўрта асрлардаёқ Марв шаҳри Ўрта Осиёning иирик маданий ва илмий-маърифий марказларидан бири бўлган, бу масканда ўша даврлардаёқ Мовароуннаҳр, Хоразм ва Хуросондан кўплаб олимлару фозиллар ва мутафаккирлар тўпланиб, Ажамning

маданий ҳаётида муҳим аҳамият қасб этганлар. Ҳатто 651 йилда сўнгги Сосонийлар шаханшоҳи Яздингард III ибн Шахриёр (632-651) араблар таъқибидан қочиб, пойтахт кутубхонасидаги китобларни ўзи билан Марвга олиб келган. Халифалик қўл остига ўтгач хам Марв ўзининг қадимий мавқенини йўқотмай, нафақат илмий ва маданий марказга, балки фатҳ этилган шарқий вилоятларнинг сиёсий марказига айланган.

Хорун ар-Рашид вафоти(809 й.)дан кейин халифалик таҳтига Муҳаммад ал-Амин (809-813) чиқади. Унинг акаси Абдуллоҳ билан таҳт учун (809-813 йилларда) олиб борган кураши (Хорун ар-Рашид ўғли Абдуллоҳни 806 йилда Мовароунинаҳр ва Хурисоннинг ноиби этиб Марвга юборган эди) Абдуллоҳнинг

## Аҳмад Фарғоний

ғалабаси билан тугайди. Муҳаммад ал-Амин қатл этилади. Ўша йили Абдуллоҳ ал-Маъмун иоми билан тахтга ўтиради. Бирок у халифалик пойтахти Бағдодга бормай, то 819 йилга қадар Марвда яшайди. У ўз атрофига олимлару фозилларни тўплайди. 819 йилда ал-Маъмун барча сарой аъёнлари ва олимлари билан бирга Марвдан Бағдодга кўчади. Улар орасида Аҳмад Фарғоний ҳам бор эди.

Бағдод бепоён мамлакатнинг сиёсий, маъмурий марказигина эмас, балки улкан илмий ва маданий марказ ҳам эди. Бу даврда Халифа Хорун ар-Рашид фармони билан бино қилинган иккита расадхона ва бой кутубхона бор эди. Абу Райхон Беруний маълумотига қараганда, расадхоналардан бири Бағдоднинг аш-Шамсия маҳалласида ва иккинчиси Дамашқ

якинида Касийун номли тоёда жойлашган эди. Расадхоналарда Хорун ар-Рашид асос солган илмий марказ “*Байтул-ҳикма*” (“Донишманлар уйи”) олимлари илмий таҳлиллар олиб борар эдилар.

Халифа Маъмуи ҳукмронлиги даврида эса “*Байтул ҳикма*” учун керакли маблағ ажратиб турилган. Бу ерда илмий тадқикотлар, таржималар ва бошқа хил ижодий ишлар ривож топган. Олимлар кўпгина илмий асарларни юонон ва паҳлавий (сосонийлар даврида Эронда мавжуд бўлган форсий тил) тилларидан араб тилига таржима қилганлар. Яна ҳинд илми ҳам бу ерда чукур ўрганилган. Агар юонон олимларининг асарлари “*Байтул ҳикма*”даги астрономияга оид тадқикотларга таъсир кўрсатган бўлса, тиб, ҳисоб ва жабр (алгебра) фанларига ҳинд илмининг таъсири сезиларли

## Аҳмад Фарғоний

бўлган. Бағдодда амалга оширилган араб тилидаги илмий асарлар лотин тилига таржима қилинган. Булар орқали ҳинд билимлари юнонларга ва Европага етиб борган<sup>1</sup>.

Маъмуннинг хукмронлиги даврида Аҳмад Фарғонийдан ташқари Муҳаммад ал-Хоразмий, ал-Аббос ал-Жавҳарий, Аҳмад ал-Марвазий, Яхё ибн Абу Мансур, Абдулҳамид ибн Турк ал-Хутталий каби Ўрта Осиё алломалари донг таратганлар. Умуман, Бағдод илмий мактабида фаолият кўрсатган донишмандларнинг аксариятини Ўрта Осиё алломалари ташкил этгани алоҳида эътиборга лойик бўлиб, бу катор илмий адабиётларда ўз исботини топган<sup>2</sup>.

Дастлаб Бағдоддаги расадхонада иш олиб борган Аҳмад Фарғоний кейинчалик

<sup>1</sup> Каюмов А. Аҳмад Фарғоний. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1990. Б.7.

<sup>2</sup> Буюк алломаларимиз. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёти, 2002. Б.8.

ал-Маъмун топшириғига биноан Дамашққаги расадхонада осмон жисмлари ҳаракати ва ўрнини аниқлаш, янгича “Зиж” ишларига раҳбарлик қилади.

Фарғонийнинг ҳаёти ҳақидаги энг сўнгги ва энг аниқ хабар 861 йил билан боғланади. Мавжуд маълумотларга кўра, у шу йили Коҳира яқинидаги Равзо оролида нилометрни, яъни Нил дарёси суви сатҳини белгиловчи ускунани ясаган ёки таъмирлаган. Бироқ Фарғоний қандай килиб ва қандай шароитда Мисрга бориб қолгани ҳақида ҳам аниқ маълумот йўқ.

Маълумки, ал-Маъмун Марвдан Бағдодга нафакат олимларни, балки ғуломлари бўлмиш турк аскарларини ҳам олиб келган эди. Бағдодга келиши билан у маълум маънода лашкарии турклаштириди; ана шу турк аскарларидан лашкарбошилар тайинланди. Турк ғуломларидан бири

Ахмад Фарғоний

бухоролик Тўлунни халифа Сурия, Фаластин ва Мисрдаги лашкарларнинг амири этиб тайинлади. Унинг ўғли Аҳмад эса Сурия ва Мисрни мустакил деб эълон қилиб, Тўлунийлар сулоласига асос солди. Ал-Хоразмий халифа Маъмуининг якин одами ва маслаҳатчиси бўлгани каби Фарғонийнинг Мисрда пайдо бўлганидан ажабланмаса ҳам бўлади.

Фарғоний ҳаётининг муддати ҳақида ҳам қиёслар қилиш мумкин. Агар унинг ҳаётини ал-Хоразмийнинг ҳаёти билан қиёс қилинса, қуйидаги хulosага келинади. Маълумки, ал-Хоразмийнинг иоми ёзма манбаларда охирги марта 847 йили Халифа ал-Восиқнинг ўлими муносабати билан эслатилади ва шундан сўнг учрамайди. Шунга кўра, унинг вафот йили деб 850 йил қабул қилинган. Фарғонийнинг иоми охирги марта 861 йили Нилнинг сатхини

ўлчагич ускунасини таъмирлаш муносабати билан эслатилади. Ҳар ҳолда Фарғоний 861 йилдан кўп яшамаган ва унинг вафот йили деб 865 йилни қабул қилиш мумкин. Агар у Маъмун билан 819 йили Марвдан Бағдодга кетаётганида 20-25 ёшлар чамасида бўлган десак, у ҳолда унинг туғилган йили деб 797 ёки 798 йилни қабул қилиш мумкин. У ҳолда унинг ҳаёт муддати 67-68 ёшни ташкил қиласиди. Демак, 1998 йили унинг туғилган йилига 1200 йил тўлди<sup>1</sup>.

Мусулмон мамлакатлари бўйлаб сафарга чиққан Захириддин Муҳаммад Бобур номидаги экспедиция аъзолари 1997 йил 5 декабрда Миср Араб Республикасида бўлиб, Ахмад Фарғоний ҳаётини ўрганишлари натижасида у Мисрнинг

<sup>1</sup> Тўпловчи ва масъул муҳаррир М.М. Хайруллаев. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиллар). А.Ахмедов. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. Б.48.

Аҳмад Фарғоний

Фустат шаҳрида вафот этганлиги, Мунаттам тоғининг шарқий қисмидан сал нарида жойлашган Имом аш-Шофе қабристонига дафи этилганлигини аниқлашди. Вақт ўтиши билан у кишининг қабри йўқолиб кетган. У ердан олиб келинган тупроқ Фарғона водийсининг Куба шаҳрида 1998 йили барпо этилган рамзий қабрга қўйилди.

**Аҳмад Фарғонийнинг илмий  
фаолияти ва аниқ фанлар ривожига  
қўшган ҳиссаси**

Аҳмад Фарғонийнинг илмий мероси билан яқиндан танишган ҳар қандай киши у ҳам астроном, ҳам географ олим деган хulosага келиши табиинидир. Бироқ Аҳмад Фарғоний ўз умри давомида фақатгина осмон жисмлари ва ер тузилишини тадқиқ этиш билан чегараланиб қолмаган.

Сабаби, у комусий олимлар даврасида фаолият кўрсатганлиги ва ўша замоннинг талаби билан ҳар томонлама чуқур билимли бўлишга интилганлигидир. Шунинг учун у бошқа соҳаларда ҳам самарали ишлар олиб борди ва кўнгина муваффақиятларга эришди. Масалан, Аҳмад Фарғоний 850 йилларнинг охирида Халифа Мутаваккилнинг топширифи билан Жаъфария шахрига борувчи канал қазилишига бошчилик қилганлиги тўғрисида маълумотлар учрайди.

Аҳмад Фарғоний юнон астрономлари, жумладан, Птоломейнинг “Юлдузлар жадвали” асарида берилган маълумотларни кўриб чиқиш ҳамда ўша даврдаги барча асосий жойларнинг жўғрофий координатларини янгитдан аниқлаш юзасидан олиб борилган мухим тадқиқотларда фаол иштирок этди. Шу муносабат билан араб тилидаги илмий

## Аҳмад Фарғоний

атамашуносликка доир ишларни, хусусан, фалакиёт, риёзиёт ва географияга оид атамаларни белгилаб чиқишидек маҳсус илмий ишларни амалга оширишда ҳам Аҳмад Фарғонийнинг хизмати жуда катта. Булардан ташқари, у айрим астрономик асбобларни ихтиро этиш, фалакиётшуносликка доир араб тилидаги бошланғыч библийларни белгилаш ва тартибга солиш ишларига ҳам муҳим ҳисса кўшиди.

832-833 йилларда Аҳмад Фарғоний Шом (Сурия) шимолидаги Синжор даштида Тадмур ва ар-Раққа оралиғида ер меридиани бир даражасининг узунлигини ўлчашда қатнашди. Юқорида айтиб ўтганимиздек, Аҳмад Фарғоний Нил дарёсидаги сув сатхини ўлчайдиган иншоот барпо этиш учун Мисрнинг Кохира шаҳри яқинидаги Фустат шаҳрига келади. Илмий-техник ва меъморий

жиҳатдан ғоят улуғвор бу қурилма Нил дарёсининг Сайёлат ул-Род мавзесида ҳозирга қадар сақланиб қолган.

Шуниси қизиқки, айнан шу ускуна ёрдамида Миср аҳолисидан олинадиган йиллик солик миқдори белгиланиб турилган. Яъни сув сатҳи экинларни сугориш учун қулай келиб, бир меъерда оқса, солиқниң миқдори шунга қараб кўтарилиган. Ёки сув сатҳи камайиб қурғоқчилик бошланадиган, аксинча сув кўтарилиб, экинларни ювиб кетиши мумкин бўлган вақтларда солиқлар миқдори камайтирилиши мумкин эди. Бу Миср аҳолисининг турмуши учун адолатли қонунлардан бири ҳисобланган.

### **Аҳмад Фарғонийнинг асарлари**

Аҳмад Фарғоний илк ўрта аср фалакиёт, риёзиёт ва география илмлари

## Аҳмад Фарғоний

йўналишида бир қанча илмий ва амалий асарлар ёзиб қолдирган. Ҳозирги кунда Аҳмад Фарғонийнинг бир неча асари маълум бўлиб, уларнинг ҳаммаси астрономияга алоқадор ва бирортаси ҳозирги замон тилларига таржима килинмаган. Бу асарларнинг қўллёзмалари жаҳоннинг турли шаҳарларидаги йирик кутубхоналарда сакланмоқда.

Аҳмад ал-Фарғонийнинг асосий астрономик асари “Китоб ал-ҳаракат ас-самовийа ва жавомиъ илм ан-нужум” (“Самовий ҳаракатлар ва умумий илми нужум китоби”) деб аталиб, “Астрономия асослари хакидаги китоб” номи билан ҳам маълумдир. Ушбу асар қўллёзмалари дунё кутубхоналарининг деярли барчасида бор. Бу асар астрономиядан араб тилида ёзилган биринчи китоблардан ҳисобланади. Аҳмад ал-Фарғонийнинг бу асари XII асрда лотин

тилига, XIII асрда эса кўпгина Европа тилларига таржима қилинган. Шундан сўнг Фарғоний номи лотинлаштирилиб, исм-насаби “Фарғоний”ни лотинчасига “Альфраганус” деб атаганлар. Фарғоний дунёда шу ном билан машҳур ва маълумдир. “Астрономия асослари ҳақидаги китоб” асаридан бир неча асрлар давомида Европа университетларида астрономия фани бўйича асосий дарслик ва қўлланма сифатида фойдаланилган. Чунки бу китоб замонасидаги астрономия ҳақидаги энг муҳим ва зарур бўлган илмларни ўз ичига олган бўлиши билан бирга астрономиядан энг содда дарслик ҳамдир. Унда мураккаб геометрик шакллар ва математик формулалар, хисоблашлар келтирилмаган. Бу эса астрономиядан бошланғич маълумотларни ўзлаштиришини анча осонлаштиради. Балки буюк Региононтан

асарнинг шу хусусиятини англаб, ўзининг университетлардаги маъruzалари учун кўлланма сифатида Фарғонийнинг ана шу асарини танлагандир.

Унииг географияга оид бўлими Ер юзидағи мамлакатлар ва шаҳарлар хақидағи энг бошланғич ва зарурӣ билимларга бағишиланган бўлиб (9-боб), “Ердаги маълум мамлакатлар ва шаҳарларнинг номлари ва ҳар бир иқлимдаги ҳодисалар хақида” деб аталади. Асарда фалакиёт ва география илмларининг асосий мазмуни, вазифалари ва қисмлари тушунарли далиллар асосида содда килиб баён этилади. Хусусан, Ернинг шарсизмонлиги, бир хил осмон ёритқичларининг турли вақтда кўтарилиши, тутилиши ва бу тутилишнинг ҳар бир жойдан турлича кўриниши, масофалар ўзгариши билан уларнинг кўриниши ҳам ўзгариши хақида қимматли

мулоҳазалар билдирилади. Бундан сўнг, етти иқлимининг ҳаммаси, улардаги мамлакатлар вилоятлари ва шаҳарлари билан бирга тавсифланади<sup>1</sup>. Шуни ҳам айтиш керакки, ўрта асрларда араб тилида ёзилган географик асарларниң энг биринчиси ал-Хоразмийниң “Китоб суратул-арз” (“Ернинг кўришиши”) асари эди. Унда ал-Хоразмий етти иқлимдаги денгизлар, мамлакатлар, тоғлар, дарёлар, кўллар ва шаҳарларниң тавсифини келтирган эди. Бунда у тавсифни “рубъи маъмурниң”<sup>1</sup> энг чеккасидан, яъни Африканинг Атлантика океани қирғонигача, яъни Тинч океанидаги Япония оролларигача давом эттиради. Тавсиф кенглама йўналишида экваториал ерлардан то шимолий қутбий ерларгача давом этади.

---

<sup>1</sup>Арабча “қуруқликнинг”.

Иқлиmlарни Фарғоний келтирган тавсифлаш усули ал-Хоразмийницидан фарқ қиласи. Ал-Хоразмий ўзининг тавсифлаш усулида Птоломей анъanasига асосланган бўлса, Фарғоний хиндларнинг анъanasига асосланиб, қуруқликнинг тавсифини энг шарқий чеккасидан бошлайди. Унинг иқлиmlар тавсифида 3,4,5,6 ва 7-иқлиmlарнинг тавсифи диккатта сазовордир. Чунки буларда Марказий Осиёning ва унга туташ ерларнинг шаҳар ва вилоятлари тавсифланади. Шунинг учун қуйида ўша тавсифларни ўз ичига олган парчани келтирамиз.

“Учинчи иқлим Шарқдан бошланаб, Хитой мамлакатининг шимолидан, сўнг Хинд мамлакатидан ва сўнгра Кобул ва Кемрон вилоятларидан ўтади.

Тўртинччи иқлим Шарқдан бошланади ва Тибетдан, сўнгра Хуросондан ўтади,

бунда Хўжанд, Усрушона, Фарғона, Самарқанд, Балх, Бухоро, Ҳирот, Амуя, Марварруд, Марв, Сарахс, Тус, Нишонур шаҳарлари бор. Ундан сўнг Журжон, Кумис, Табаристон, Девоманд, Қазвин, Дайlam, Рай, Исфахондан ўтади.

Бешинчи иқлим Шарқда Яъжуҷ мамлакатидан бошланади, сўнг Ҳурносоннинг шимолидан ўтади. Унда Тороз шаҳри – савдогарлар шаҳри бор, Навокат (Навкат), Ҳоразм, Исфиҷоб (Сайрам), Турарабанд (Ўтрор – ҳозирги Арис) ва Озарбайжон, Арминия (Арманистон) вилояти, Бардаъа (Барда), Нашава (Нахчивон) шаҳарлари бор.

Олтничи иқлим Шарқдан бошланади ва Яъжуҷ мамлакатидан ўтади, сўнг Ҳазар мамлакатидан (Шимолий Кавказ ва Қўйи Волгабўйи), Журжон (Каспий) дengизининг ўртасидан кесиб ўтади ва Рум (Византия) мамлакатигача боради.

Ахмад Фарғоний

Еттинчи иқлим Шарқда Яъжуж мамлакатининг шимолидан бошланади, сўнг туркий мамлакатлардан (Марказий Осиё), сўнг Журжон дengизининг шимолидан, сўнг Рум дengизини (Кора дengиз) кесиб сақлаблар (славянлар) мамлакатидан ўтади ва Farb дengизида (Атлантика) тутайди".

Келтирилган парчадан кўринадики, Фарғоний катта кенгликтаги ўлкаларни тавсифлаган бўлса ҳам, ўзининг асл ватани Мовароунахрни муфассалроқ тавсифлаган. бундан ташқари, шуни ҳам таъкидлаш керакки, Фарғонийнинг рубъи маъмур (қуруқлик) хақидаги тасаввури анча аниқ бўлиб, хар хил афсонавийлиқдан ҳолидир. Чунончи, у Яъжуж мамлакати деб Шарқдаги афсонавий мамлакатни эмас, балки ҳозирги Мўгулистаннинг шарқи ва Хитойнинг шимоли-шарқига мос келадиган аниқ географик ҳудудни айтган.

Асарнинг анчагина қисмини астрономик асбоблар ясаш ва улардан фойдаланиш методлари, хусусан, астрономик қузатувлар учун энг зарур асбоблардан бири — Куёш соатининг баёни эгаллади.

Аҳмад ал-Фарғонийнинг “Астрономия асослари ҳақидаги китоб” асари ўрта аср мусулмон Шарқи мамлакатларидағи, сұнг Испания орқали Европа мамлакатларидағи астрономия илмининг ривожини бошлаб берди. Қадимги юнон илми, жумладан, астрономик илмлар ҳам биринчи бор арабчадан таржима қилинган рисолалар орқали маълум бўлди. Бу асарнинг лотинча таржимаси ilk бор 1493 йилда тошбосма усулида нашр этилди.

1669 йилда машхур голланд математиги ва арабшуноси Якоб Галиус Аҳмад Фарғоний асарининг арабча матинини янги лотинча таржимаси билан нашр этганидан сўнг Аҳмад Фарғонийнинг шухрати янада ортди.

Аҳмад Фарғоний

### **Аҳмад Фарғоний асарлари**

#### **“Устурлаб ясаш ҳақидаги китоб”**

(қўлёзма нусхалари Берлин, Лондон, Машҳад, Париж ва Техрон кутубхоналарида сакланмоқда).

**“Устурлаб билан амал қилиш ҳақидаги китоб”** (биргина қўлёзмаси Рампурда (Ҳиндистон) сакланмоқда).

**“Фарғоний жадваллари”** (қўлёзмаси Патнада (Ҳиндистон) сакланмоқда).

**“Ойиниг Ер остида ва устида бўлиш вақтларини аниклаш рисоласи”** (қўлёзмаси Гота ва Коҳирада сакланмоқда).

**“Қуёш соатини ясаш ҳақида китоб”** (қўлёзмалари Ҳалаб ва Коҳирада сакланмоқда).

**“Ал-Хоразмий “Зиж”инииг назарий қарашларини асослаш”** асари Беруний томонидан эслатилади, лекин қўлёзмаси тоғилмаган<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Тўйловчи ва масъул мухаррир М.М. Хайруллаев. Маънивият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адіблар). А.Аҳмедов. Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. Б.49.

<sup>2</sup> Ўрта Осиё олимлари комуси. –Тошкент, 2007. Б.279.

Шунингдек, Фарғонийнинг асарлари қаторига “**ал-Мадҳал ала илми хайъатил-афлок ва ҳаракатин-иужум**” (“Фатакларниң кўриниши ва юлдузлар ҳаракати илмига кириші”)<sup>2</sup> ҳам киради.

Фарғонийнинг бу рўйхат бошидаги икки асаридан бошқалари ҳали хеч ким томонидан ўрганилмаган. Шубҳасиз, улар урганилиб, таҳлил қилиниши билан Фарғоний ижодининг янги қирралари очилди. Ва олимнинг ўрга асрларда, ундан кенин Шарқ ва Farбда бу қадар машҳур бўлишин сабаблари ҳам аён бўлади.

Ахмад ал-Фарғоний рисола ҳам яратган, масалац, Птоломейнинг “Алмагест” асаришнинг шарҳига бағишлаб “Алмагестииниг кириш бўлимлари ҳақида ўттиз бобдан иборат рисола” номли асар ёзган.

Ахмад ал-Фарғоний “Устурлаб ясан ҳақида” номли асарида стереографик


Аҳмад Фарғоний

проекция (сферанинг бирор  $S$  нуқтасидан шу нуқтага диаметриал қарама-қарши  $S'$  нуқтадаги уринма  $a$  текисликка проекцияси) хақида ва унинг хоссаларини баён қилган:

I. Сферада ётган айланалар  $a$  текисликка айланалар қўринишида ёки айланалар сфера марказидан ўтса, тўғри чизиқлар қўринишида проекцияланади.

II. Стереографик проекцияда сферада ётган эгри чизиқлар орасидаги бурчаклар  $a$  текисликка проекцияланган эгри чизиқлар орасидаги бурчакларга teng бўлади.

III. Сфера  $S$  ва  $S'$  ўтган диаметр атрофида бурилганда  $a$  текислик ҳам шу нуқта атрофида худди ана шу бурчакка бурилади.



Бу хоссалар Фарғонийгача яшаган баъзи олимлар (масалан, Птоломей) асарларида ҳам учрайди<sup>1</sup>. Аммо улар бу хоссаларнинг исботини бермаган. Фарғоний юқорида айтилган асарида биринчи хоссанинг тўлиқ исботини келтиради. Бунда у қуйидаги леммага асосланади: фараз қиласлик, айланан тўғри чизиқка проекцияланганда айлананинг М ва N нуқталари тўғри чизиқнинг  $M^1$  ва  $N^1$  нуқталарига ўтсин.

У ҳолда  $SMN = SN^1M^1$ ,  $SNM = SM^1N^1$ .

---

<sup>1</sup> <http://fan.zn.uz/352>

Самовий жилемлар харакатини Ньютон ва Лаплас масса харакатининг динамикаси шаклида, Кеплер эса геометрик йўсимида баён этган бўлса, Фарғоний улардан бир неча аср аввалроқ жадваллар конунияти шаклида изохлаган. Жадвалининг фазилати ва имтиёзи — унинг жонли мунюходага очик эканлигидир.

Стереографик проекциялар назариясининг кашфиётчisi ҳам Фарғонийдир. Қўёш, Ой, санёралар ва юлдузларининг, бишобарни, умуман Осмонининг бўлажак манзарасини билдиш учун геометрик-кинематик усул астрономия фанининг умумий усули сифатида қабул қилиб олинган бўлса, жаҳон мунажжимлик фанининг буидай умуммаҳражга келишида Фарғоний тонгани ва асослаган устуртаб (Европачасига астролябия) асбобининг аҳамияти катта бўлган. Чунки осмон гумбазида мавҳум

равища жойлаштирилган меридиан, экватор, эклиптика, азимут, координата ўқлари ва тизимларининг, бурчакларининг, нукталарининг доира асбобга проекцияларини, яъни фазовий шакллариниг текисликдаги тасвирини тушириши фанга, астрономияга, дентизчиларга анча қулағылар түғдирган. Бу асбоб илгари ҳам бор эди. Лекин унинг назариясини факат Фарғоний кашф этди. Бу кашфиётининг аҳамияти ва илмий изчиллик билан асосланганигини шундан ҳам билсак бўладики, Фарғоний даврида қарийб минг йыл кейин, XVIII асрда буюк математик Эйлер бу назарияни жўғрофий хариталар тузиш назариясига татбиқ қилди ва “Россия империясининг бош жўғрофий харитаси”ни тузишда ишлатди. Бу назария комплекс ўзгарувчан миқдорлар текислиги, ноевклид геометриялар, Лобачевский текислигининг

Аҳмад Фарғоний

Бельтрани-Клейн проекцияси, космик геодезия ва космографиянинг заминларида ётади<sup>1</sup>.

### Аҳмад Фарғоний дунё олимлари нигоҳида

Гарчи Аҳмад Фарғоний ҳақида маълумотлар жуда оз бўлса-да, аммо ўрта асрларда Шарқ илмий дунёсида унинг номи машҳур бўлган. Ибн ан-Надим (Х аср), Ибн ал-Кифтий (XII – XIII аср)лар, Абул Фараж Бар Эбрей (XIII – аср) ва Ҳожи Халифа (XVII аср) каби Шарқ олимлари унинг номини ўз асарларида қайд этганлар.

Европа Уйғониш даврининг машҳур олими Региомонтан XV асрда Австрия ва Италия университетларида астрономияга

---

<sup>1</sup> Мустақиллик (Изохли илмий-оммабоп луғат). – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. Б.10.

доир маърузаларни Аҳмад Фарғоний асарлари асосида ўқиган. Унинг номи Данте (XIV аср) ва Шиллер (XVIII аср) томонидан тилга олинади.

Европа олимларидан Д'аламбер, Брокельман, Х. Зутер, И.Ю.Крачковский, А.П. Юшкевич ва Б. А. Розенфельдлар Аҳмад Фарғонийнинг илмий меросига юқори баҳо беришган.

### **Аҳмад Фарғоний мероси ва мустақиллик**

Аҳмад Фарғонийнинг бой илмий меросини чуқур ўрганиш Ўзбекистонда мустақилликдан кейин бошланди. 1998 йили Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов ташаббуси билан Аҳмад Фарғонийнинг 1200 йиллиги халқаро миқёсда кенг нишонланди. Фарғона шаҳрида Аҳмад Фарғоний номи билан аталадиган истироҳат боғи

## Аҳмад Фарғоний

яратилди ва қадимий Куба шаҳрида Аҳмад Фарғоний хайкали ўриатилди. ЮНЕСКОнинг 1998 йилдаги тадбирларн, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг "Аҳмад Фарғоний" таваллудининг 1200 йиллигини ишиоилаш тўғрисида" ги қарори(1997 йил 27 ноябрь)га кўра, аллома ҳаёти ва ижодига бағишлиланган илмий анжуманлар, бадиий кўргазмалар ўтказилди, янги китоблар нашр этилди, спектакллар сахналаштирилди, фильмлар суратга олинди. Фарғона шаҳридаги майдон, кўча, мактабларнинг бирига Аҳмад Фарғоний номи берилди.

"Бугунги кунда одамзоднинг илм-фан ва замонавий технологиялар борасида эришаётган улкан ютуқларини кўз олдимизга келтирас эканмиз, беихтиёр ана шу буюк бобомиз мисолида бундай

юксак мэрраларга эришишда ўзбек халқининг ҳам муносиб ҳиссаси борлигидан қалбимиз ифтихорга тўлади”.

Албатта, улуғ аждодимиз — Аҳмад Фарғоний инсоният тарихидаги илк уйғониш даврининг энг забардаст ва кучли намояндаси, ўз замонасиининг фундаментал фан асосчиларидан бири сифатида башарият дунёқараси ва маънавиятигининг ривожланишига бекиёс таъсир қўрсатди. Унинг бебаҳо мероси ўз даври олимлари учун дастуриламал бўлиб хизмат қылгани гарихий мањбалар орқали яхши маълум.

Алломанинг “Астрономия асослари ҳақида китоб” номли асари ўн иккинчи асрдаёқ лотин ва иврит тилларига гаржима этилгани ҳам бу фикрининг далилидир.

Аҳмад Фарғоний

Европада Альфраганус номи билан машҳур бўлган бу алломанинг илм-фан ривожидаги нуфузи шу қадар юксак эдикни, унинг исми-шарифи Ер куррасидагина эмас, балки самода ҳам шуҳрат топди. Ўн олтинчи асрда Ойдаги кратерлардан бирига унинг номи берилгани бу фикрни исботлайди. Атоқли астроном Ян Гевелий томонидан 1647 йили нашр қилинган “Селенография” китобида Ойдаги кратерлардан иккитаси икки буюк ватандошимиз — Аҳмад Фарғоний ва Мирзо Улуғбек номи билан аталади<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Ташкент. 2008. Б.41-42.

## Аҳмад Фарғоний ҳаётидан ибратли воқеалар

Аҳмад маҳалла масжидидаги мактабда ўқир эди. Ўқитувчи имом Аҳмаднинг қобилиятини сезди ва уни ривожлантирмоқ зарур эканлигини боланинг отасига айтмоққа жазм қилди. Бир куни жума намозидан сўнг одамлар тарқалишаётганида имом Аҳмаднинг отаси Муҳаммадни қолмоққа таклиф қилди. Улар имомнинг масжиддаги хонасида куйидаги мазмунда сухбат қурдилар:

— Ўзингиз Аҳмад хўб истеъодли бола. Уни таҳсил учун дорул-улумга юбормоқ керак. Бу тўғрида ўйлаб кўрганмисиз? — деди ўқитувчи Муҳаммадга.

— Жанобингизнинг ҳусни таважжух-ларидан фоят миннатдорман. Мен бу тўғрида ўйлаган эдим. Аммо бу шаҳарларнинг бирортасида дорул-улум мавжудмидир?

Аҳмад Фарғоний

— Бор, — деди ўқитувчи, — лекин Аҳмад халифаликнинг пойтахти дорусалом — Бағдодда тахсил олмоғи керак. Боланинг юксак қобилияти ўша ерда муносиб камол қасб этажак.

Мұхаммад ўйланиб қолди. Ўғли ҳали ёш, энди ўн бешни түлғазиб, ўн олтига қадам қўйди. Узок, ўзга юртда бола не холларга тушади, кўзланган мақсад амалга ошадими, мусоғирлик, ғарибликда овора бўлиб қолмайдими?

Ўқитувчининг гапида жон бор. Агар Аҳмад яхши билим олса, олим, фозил бир киши бўлиб етишади. Бу ерда эса болани қандай тақдир кутмоқда? Хозир Фарғона атрофлари иотинч. Мұхаммад бундан ўн беш-йигирма йил бурун бўлиб ўтган воқеаларни эсга олди. 775-785 йиллар орасида Фарғона халқи ислом фотихчиларига қарши бош кўтарди.

Кўзғолончилар Косон шаҳрини эгаллаб, уни ўзларига марказ килдилар. Кўзғолон кеңг ёйниб, бутун Фарғонани қоплади. Халифа Маҳдиј қўзғолончиларга қариши Ахмад иби Асад бошчилигига қўшин юборди. Конли урушлар бўлди. Кўн одам қирилди. Шаҳар ва қишлоқлар босқинчилар томонидан ёндирилди, халқ кўзғолони эса шафкатсизлик билан бостирилди. Ана шу воқеалардан кўп ўтмай, Ахмад дунёга келган эди. Фарғона ўлкаси ҳамон ўша урушлар дудини сезади. Араб ҳокимияти аста-секин ўз дини — исломга даъват этмоқда. Шаҳар ахолисидан кўни ислом динини қабул килган эди. Аммо атроф қишлоқларда яшовчилар, айишқса, кўчманчи халқларининг қаршилиги кучли. Улар хатто шаҳарларга ҳужум ҳам қилиб турасилар. Шунинг учун Ўш яқинидаги тоғ устига равот қурилган. Ислом аскарлари бу

Аҳмад Фарғоний

тоғдан туриб кўчманчи туркларнинг ҳаракатларини синчковлик билан кузатадилар.

Аҳмаднинг балоғат ёши келди. Уни ислом лашкари сафига тортмоқлари мумкин. У ҳолда бола ур-сур, сур-урга кўшилиб кетади, бирор жангда ҳалок бўлиши ҳам ҳеч гап эмас. Муҳаммад кечаси билан шу ҳақда ўйлаб чиқди. Эртаси эрталаб нонуштадан сўнг Аҳмад ўқишига кетгач, Муҳаммад хотинига ўз қарорини билдириди: Аҳмад Фарғонани тарк этиб, Бағдодга кетади. Бағдодда илм таҳсил олади. Бола катта бўлиб қолди. У мустакил бўлмоғи, пешонасига не ёзилган бўлса, шуни кўрмоғи керак. Бу гапни эшишиб, онанинг кўзи жиққа ёшга тўлди. Аммо эрнинг қарорига қарши бир нима деб бўладими?!

Орадан бирмунча фурсат ўтди. Бир куни тоиг пайти ота ва она ўғли Аҳмад билан хайрлашдилар. Аҳмад катта карвонга кўшилиб, Бағдод сари йўл олди<sup>1</sup>.

**1998 йил.** Март. Тошкентда Аҳмад Фарғонийнинг 1200 йиллигига бағишлиланган илмий конференция бўлиб ўтди. Унда олимлар, мутахассислар, талабалар, Тошкентдаги Миср маданий марказининг ходимлари ҳамда дипломатик корпус вакиллари қатнашдилар.

**Апрель.** Дехлида «Аҳмад Фарғоний ва унинг даври» мавзуида илмий-амалий конференция бўлиб ўтди. Унда Хиндистоннинг етакчи олимлари, дипломатик корпус вакиллари, журналистлар, шунингдек, мазкур мамлакат ўқув юртларида таълим олаётган

---

<sup>1</sup> Каюмов А. Аҳмад Фарғоний. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1990. Б.7.

Аҳмад Фарғоний

ўзбек стажёрлари, аспирантлари ва талабалари иштирок этишди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) Бош ассамблеяси Халқаро астрономия уюшмаси ва ЮНЕСКО (БМТнинг таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилоти) таклифини маъқуллаб, 2009 йилни Халқаро астрономия йили деб эълон қилди. Шу муносабат билан астрономия фани ютуқларини бутун дунё бўйлаб кенг тарғиб этиш мақсадида «Ердан коинот сари» лойиҳаси асосида катор мамлакатларда кўргазмалар ташкил қилинди, кўчаларга кўчма телескоплар ўрнатилиб, одамларнинг коинотни кузатишларига имкон берилди, энг арzon телескопларни ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

### **Аҳмад Фарғоний ҳақидағи адабиётлар**

1. Кары-Ниязов Т. Н., Астрономическая школа Улугбека, М.-Л., 1950
2. Носиров А., Ҳикматуллаев Х., Аҳмад Фарғоний, Т., 1966.
3. Буюк сиймолар, алломалар (Ўрта Осиёлик машҳур мутафаккирлар ва донишмандлар), 1-китоб, Т., 1995.
4. Аҳмедов А. Аҳмад Фарғоний, Т., 1998.
5. Буюк алломаларимиз. — Т.: “Тошкент ислом университети нашриёти”. 2002 й.
6. Абдулаҳатов Н., Ҳошимов Б. Аҳмад Фарғоний. “Фарғона” нашриёти, 1998.

**Адабиётлар:**

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. -Тошкент. 2008.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005. 9-т.
3. Ўрта Осиё олимлари комуси. — Тошкент, 2007.
4. Мустақиллик (Изоҳли илмий-оммабоп луғат). — Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1998.
5. Ўзбекистон: ислом обидалари. Фотоальбом — Т.: Ўзбекистон, 2002.
6. Тўпловчи ва масъул муҳаррир М.М. Хайруллаев. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). А.Аҳмедов. -Т.:

А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр.,  
2001.

7. Абдулаҳатов Н., Ҳошимов Б. Аҳмад  
Фарғоний. “Фарғона” нашриёти, 1998.

8. Қаюмов А. Аҳмад Фарғоний. —  
Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1990.

9. Буюқ алломаларимиз. — Т.:  
“Тошкент ислом университети  
нашриёти”. 2002

10. [http://fan.zn.uz/352;  
www.adiblar.uz/index.php?name=Alloma  
&id=3](http://fan.zn.uz/352; www.adiblar.uz/index.php?name=Alloma&id=3)

Ахмад Фарғоний

*Bizning tariximizda jahonga dong taratgan ulug' mutafakkirlar o'tgan ekan, ularning qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosi, ibratli hayoti, ta'limoti bugungi muammolarni yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bu merosni o'rganmaslikka, ta'riflamaslikka, targ'ib etmaslikka haqimiz yo'q.*

*Islom KARIMOV*

Ahmad Farg'onyi

**“MUTAKKILAR”**  
ilmiy-ommabop risolalar turkumi

# AHMAD FARG‘ONIY

## AHMAD FARG‘ONIY (797-865)

### Ismi-sharifi

Uning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir Farg‘oniyidir.

### Qayerda, qachon tug‘ilgan?

Olimning ismi fan tarixida mashhur bo‘lishiga qaramasdan, uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma’lumotlar juda oz. Uning tug‘ilgan joyi Farg‘ona vodiysining Qubo (Quva)<sup>1</sup> qishlog‘i bo‘lib, tug‘ilgan yili mantiqiy hisoblar natijasiga ko‘ra, 797-yil<sup>2</sup> deb topilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston: islom obidalari. Fotoalbom –T.: O‘zbekiston, 2002. B.256.

<sup>2</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.–T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005. 9-t.

Ahmad Farg'oniy

### **U zot kim bo'lgan?**

Ahmad Farg'oniy o'rta asrning buyuk qomusiy olimi. Sharqda Farg'oniy, Yevropada Alfraganus (Alfraganus) taxalluslari bilan mashhur bo'lgan olim astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan.

### **Qanday davrda va muhitda yashagan?**

Ahmad Farg'oniyning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida juda oz, u ham bo'lsa, uzuq-yuluq ma'lumotlar yetib kelgan.

Ahmad Farg'oniy davrida Farg'ona har tomonlama rivojlangan, mustahkam iqtisodiy va siyosiy poydevorga ega bo'lgan, madaniy hayoti nihoyatda takomillashgan va boy vohalardan biri

bo‘lgan edi. Farg‘onaning nafaqat O‘rta Osiyoda, balki butun Arab xalifaligidagi mavqeiga har qanday davlat havas qilsa arzigulik bo‘lgan. Hatto Arab xalifalari saroyida ham Farg‘onadan yetishib chiqqan katta-katta amaldorlar eng muhim mansablarni egallashgan. Bu o‘rinda faqat Ahmad Farg‘oniy emas, balki ko‘plab harbiy amaldorlar, yirik savdogarlar, san’at va adabiyot namoyandalari o‘rni nazarda tutilmoqda. Vaholanki, shularning o‘zi ham Arab xalifaligi davrida Farg‘onaning o‘rni qay darajada yuqori bo‘lganligiga dalolatdir.

714-715-yillari qo‘sishnaboshi Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi islom arab lashkari Farg‘onani ishg‘ol qiladi. Ular Farg‘onada muqim yashayotgan aholi o‘rtasida islom dini va arab tilini o‘rgata

boshlaydilar. Ungacha Farg'ona xalqi buddaviylik, zardushtiylik, manixeylik e'tiqodlariga rioya qilar edi. Farg'onaliklarni islomga o'tkazish deyarli yuz yil davom etgan. 819-820-yillarda arab xalifasi Ma'mun Farg'onani Buxorodagi o'ziga qaram somoniylar hokimiyati ixtiyoriga o'tkazadi. Shu yo'sinda Farg'ona o'lkasi juda katta yerlarni o'z ichiga olgan arab xalifaligining sharqiy viloyati bo'lib qoladi. Bu vaqtlar arab xalifaligining hududi G'arbda Misr, Mag'rib (Shimoliy Afrika) orqali to Ispaniyagacha, Sharqda esa Eron, Xuroson, Movarounnahr orqali Shosh va Farg'onaga qadar cho'zilardi. Bag'dod shahri — xalifalikning markazi edi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Abdulahatov N., Hoshimov B. Ahmad Farg'oniy. "Farg'ona" nashriyoti, 1998. B.3-5.

Ахмад Фарғоний

## Ahmad Farg'oniyning hayoti va ijodiy safarlari

Ahmad Farg'oniy Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vorislari al-Ma'mun (813-833), Mu'tasim (833-842) va Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan yillarda yashagan hamda avval Marv, so'ogra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hay'at (falakiyotshunoslik – astronomiya), riyoziyot (matematika) va jo'g'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullangan.

Ahmad Farg'oniy dastavval (tax. 811-y.) Farg'onadan Marvgaga kelgan. Ilk o'rta asrlardayoq Marv shahri O'rta Osiyoning yirik madaniy va ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan, bu maskanda o'sha davrlardayoq Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan ko'plab olimlaru fozillar

va mutafakkirlar to'planib, Ajamning madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etganlar. Hatto 651-yilda so'nggi Sosoniylar shahanshohi Yazdigard III ibn Shahriyor (632-651) arablar ta'qibidan qochib, poytaxt kutubxonasi dagi kitoblarni o'zi bilan Marvga olib kelgan. Xalifalik qo'l ostiga o'tgach ham Marv o'zining qadimiy mavqeini yo'qotmay, nafaqat ilmiy va madaniy markazga, balki fath etilgan sharqiy viloyatlarning siyosiy markaziga aylangan.

Xorun ar-Rashid vafoti(809-y.)dan keyin xalifalik taxtiga Muhammad al-Amin (809-813) chiqadi. Uning akasi Abdulloh bilan taxt uchun (809-813-yillarda) olib borgan kurashi (Xorun ar-Rashid o'g'li Abdullohni 806-yilda Movarounnahr va Xurosonning noibi etib Marvga yuborgan

edi) Abdullohning g' alabasi bilan tugaydi. Muhammad al-Amin qatl etiladi. O'sha yili Abdulloh al-Ma'mun nomi bilan taxtga o'tiradi. Biroq u xalifalik poytaxti Bag'dodga bormay, to 819-yilga qadar Marvda yashaydi. U o'z atrofiga olimlaru fozillarni to'playdi. 819-yilda al-Ma'mun barcha saroy a'yonlari va olimlari bilan birga Marvdan Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida Ahmad Farg'oniy ham bor edi.

Bag'dod bepoyon mamlakatning siyosiy, ma'muriy markazigina emas, balki ulkan il'miy va madaniy markaz ham edi. Bu davrda Xalifa Xorun ar-Rashid farmoni bilan bino qilingan ikkita rasadxona va boy kutubxona bor edi. Abu Rayhon Beruniy ma'lumotiga qaraganda, rasadxonalardan biri Bag'dodning ash-Shamsiya mahallasida va ikkinchisi Damashq

yaqinida Kasiyun nomli tog'da joylashgan edi. Rasadxonalarda Xorun ar-Rashid asos solgan ilmiy markaz "*Baytul-hikma*" ("*Donishmandlar uyi*") olimlari ilmiy tahlillar olib borar edilar.

Xalifa Ma'mun hukmronligi davrida esa "*Baytul hikma*" uchun kerakli mablag' ajratib turilgan. Bu yerda ilmiy tadqiqotlar, tarjimalar va boshqa xil ijodiy ishlar rivoj topgan. Olimlar ko'pgina ilmiy asarlarni yunon va pahlaviy (sosoniylar davrida Eronda mavjud bo'lgan forsiy til) tillaridan arab tiliga tarjima qilganlar. Yana hind ilmi ham bu yerda chuqur o'r ganilgan. Agar yunon olimlarining asarlari "*Baytul hikma*"dagi astronomiyaga oid tadqiqotlarga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tib, hisob va jabr (algebra) fanlariga hind ilmining ta'siri sezilarli bo'lgan. Bag'dodda

amalga oshirilgan arab tilidagi ilmiy asarlar lotin tiliga tarjima qilingan. Bular orqali hind bilimlari yunonlarga va Yevropaga yetib borgan<sup>1</sup>.

Ma'munning hukmronligi davrida Ahmad Farg'oniydan tashqari Muhammad al-Xorazmiy, al-Abbos al-Javhariy, Ahmad al-Marvaziy, Yahyo ibn Abu Mansur, Abdulhamid ibn Turk al-Xuttaliy kabi O'rta Osiyo allomalari dong taratganlar. Umuman, Bag'dod ilmiy mакtabida faoliyat ko'rsatgan donishmandlarning aksariyatini O'rta Osiyo allomalari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiқ bo'lib, bu qator ilmiy adabiyotlarda o'z isbotini topgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Qayumov A. Ahmad Farg'oniy. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990. B.7.

<sup>2</sup> Buyuk allomalarimiz. – T.: "Toshkent islam universiteti nashriyoti". 2002. B.8.

Dastlab Bag'doddagi rasadxonada ish olib borgan Ahmad Farg'oniy keyinchalik al-Ma'mun topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnnini aniqlash, yangicha "Zich" tuzish ishlariga rahbarlik qiladi.

Farg'oniyning hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta'mirlagan. Biroq Farg'oniy qanday qilib va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq ma'lumot yo'q.

Ma'lumki, al-Ma'mun Marvdan Bag'dodga nafaqat olimlarni, balki g'ulomlari bo'lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag'dodga kelishi bilan u

ma'lum ma'noda lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinlandi. Turk g'ulomlaridan biri buxorolik To'lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o'g'li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e'lon qilib, To'luniylar sulolasiga asos soldi. Al-Xorazmiy xalifa Ma'munning yaqin odami va maslahatchisi bo'lgani kabi Farg'oniyning Misrda paydo bo'lganidan ajablanmasa ham bo'ladi.

Farg'oniy hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyning hayoti bilan qiyos qilinsa, quyidagi xulosaga kelinadi. Ma'lumki, al-Xorazmiyning nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847-yili Xalifa al-Vosiqning o'limi munosabati bilan

Ahmad Farg'oniy

eslatiladi va shundan so'ng uchramaydi. Shunga ko'ra uning vafot yili deb 850-yil qabul qilingan. Farg'oniyning nomi oxirgi marta 861-yili Nilning sathini o'chagich uskunasini ta'mirlash munosabati bilan eslatiladi. Har holda Farg'oniy 861-yildan ko'p yashamagan va uning vafot yili deb 865-yilni qabul qilish mumkin. Agar u Ma'mun bilan 819-yili Marvdan Bag'dodga ketayotganida 20-25 yoshlar chamasida bo'lган desak, u holda uning tug'ilgan yili deb 797 yok 798-yilni qabul qilish mumkin. U holda uning hayot muddati 67-68 yoshni tashkil qiladi. Demak, 1998-yili uning tug'ilgan yiliga 1200 yil to'ldi<sup>1</sup>.

Musulmon mamlakatlari bo'ylab safarga chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur

---

<sup>1</sup> To'plovchi va mas'ul muharrir M M. Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzları (Markaziy Osiyolik mashhur siymlar, allomalar, adiblar). A. Ahmedov. -T.: A Qodiriy nomidagi xalq merozi nashr., 2001. B.48.

nomidagi ekspeditsiya a'zolari 1997-yil 5-dekabrdagi Misr Arab Respublikasida bo'lib, Ahmad Farg'oniy hayotini o'rganishlari natijasida u Misrning Fustat shahrida vafot etganligi, Munattam tog'inining sharqiy qismidan sal narida joylashgan Imom ash-Shofe qabristoniga dafn etilganligini aniqlashdi. Vaqt o'tishi bilan u kishining qabri yo'qolib ketgan. U yerdan olib kelingan tuproq Farg'ona vodiysining Quva shahrida 1998-yili barpo etilgan ramziy qabrga qo'yildi.

### **Ahmad Farg'oniyning ilmiy faoliyati va aniq fanlar rivojiga qo'shgan hissasi**

Ahmad Farg'oniyning ilmiy merosi bilan yaqindan tanishgan har qanday kishi uni ham astronom, ham geograf olim degan xulosaga kelishi tabiiydir. Biroq Ahmad Farg'oniy o'z umri davomida faqatgina

osmon jismlari va yer tuzilishini tadqiq etish bilan chegaralanib qolmagan. Sababi, u qomusiy olimlar davrasida faoliyat ko'rsatganligi va o'sha zamonning talabi bilan har tomonlama chuqr bilimli bo'lishga intilganligidir. Shuning uchun u boshqa sohalarda ham samarali ishlar olib bordi va ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishdi. Masalan, Ahmad Farg'oniy 850-yillarning oxirida Xalifa Mutavakkilning topshirig'i bilan "Ja'fariya" shahriga boruvchi kanal qazilishiga boshchilik qilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Ahmad Farg'oniy yunon astronomlari, jumladan, Ptolomeyning "Yulduzlar jadvali" asarida berilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish hamda o'sha davrdagi barcha asosiy joylarning jo'g'rofiy koordinatlarini yangitdan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etdi.

Shu munosabat bilan arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyat, riyoziyot va geografiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda ham Ahmad Farg'oniyning xizmati juda katta. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang'ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qo'shdi.

832-833-yillarda Ahmad Farg'oniy Shom (Suriya) shimolidagi Sinjor dashtida Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Ahmad Farg'oniy Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan inshoot barpo etish uchun Misrning Qohira shahri yaqinidagi Fustat shahriga

keladi. Ilmiy-texnik va me'moriy jihatdan g'oyat ulug'vor bu qurilma Nil daryosining Sayyolat ul-Rod mavzesida hozirga qadar saqlanib qolgan.

Shunisi qiziqki, aynan shu uskuna yordamida Misr aholisidan olinadigan yillik soliq miqdori belgilanib turilgan. Ya'ni, suv sathi ekinlarni sug'orish uchun qulay kelib, bir me'yorda oqsa, soliqning miqdori shunga qarab ko'tarilgan. Yoki suv sathi kamayib quрг'oqchilik bosh-lanadigan, aksincha suv ko'tarilib, ekinlarni yuvib ketishi mumkin bo'lган vaqtarda soliqlar miqdori kamaytirilishi mumkin edi. Bu Misr aholisining turmushi uchun adolatli qonunlardan biri hisoblangan.

### Ahmad Farg'oniyning asarlari

Ahmad Farg'oniy ilk o'rta asr falakiyot, riyoziyot va geografiya ilmlari yo'nalishida bir qancha ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Hozirgi kunda Ahmad Farg'oniyning bir necha asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Bu asarlarning qo'lyozmalari jahonning turli shaharlaridagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda.

Ahmad Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum" ("Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum kitobi", deb atalib, "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" nomi bilan ham ma'lumdir. Ushbu asar qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. Bu

asar astronomiyadan arab tilida yozilgan birinchi kitoblardan hisoblanadi. Ahmad Farg'oniyning bu asari XII asrda lotin tiliga, XIII asrda esa ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan. Shundan so'ng Farg'oniy nomi lotinlashtirilib, ism-nasabi "Farg'oniy"ni lotinchasiga "Alfraganus" deb ataganlar. Farg'oniy shu nom bilan dunyoda mashhur va ma'lumdir. "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik va qo'llanma sifatida foydalilanilgan. Chunki bu kitob zamonasidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo'lgan ilmlarni o'z ichiga olgan bo'lishi bilan birga astronomiyadan eng sodda darslik hamdir. Unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu

esa astronomiyadan boshlang'ich ma'lumotlarni o'zlashtirishni ancha osonlashtiradi. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, o'zining universitetlardagi ma'ruzalari uchun qo'llanma sifatida Farg'oniyning ana shu asarini tanlagandir.

Uning geografiyaga oid bo'limi Yer yuzidagi mamlakatlar va shaharlar haqidagi eng boshlang'ich va zaruriy bilimlarga bag'ishlangan bo'lib (9-bob), "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida" deb ataladi. Asarda falakiyat va geografiya ilmlarining asosiy mazmuni, vazifalari va qismlari tushunarli dalillar asosida sodda qilib bayon etiladi. Xususan, Yerning sharsimonligi, bir xil osmon yoritqichlarining turli vaqtida ko'tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko'rinishi, masofalar o'zgarishi

bilan ularning ko‘rinishi ham o‘zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiriladi. Bundan so‘ng, yetti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar viloyatlari va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, o‘rtalarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi al-Xorazmiyning “Kitob surat-ul-arz” (“Yerning ko‘rinishi”) asari edi. Unda al-Xorazmiy yetti iqlimdagи dengizlar, mamlakatlar, tog‘lar, daryolar, ko‘llar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifni “rub‘i ma’mur”<sup>1</sup>ning eng chekkasidan, ya’ni Afrikaning Atlantika okeani qирг‘ог‘игача, ya’ni Tinch okeanidagi Yaponiya orollarigacha davom ettiradi. Tavsif kenglama yo‘nalishida ekvatorial yerlardan to shimoliy qutbiy yerkargacha davom etadi.

---

<sup>1</sup>Arabcha «Quruqlikning»

Iqlimlarni Farg'oniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiy nikidan farq qiladi. Al-Xorazmiy o'zining tavsiflash usulida Ptolomey an'anasiiga asoslangan bo'lsa, Farg'oniy hindlarning an'anasiiga asoslanib, quruqlikning tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tavsifida 3,4,5,6 va 7-iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida o'sha tavsiflarni o'z ichiga olgan parchani keltiramiz.

"Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan va so'ngra Kobul va Kemron viloyatlaridan o'tadi.

To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosondon o'tadi, bunda Xo'jand, Usrushona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya,

Ahmad Farg'oniy

Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Devomand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o'tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Ya'juj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi. Unda Toroz shahri – savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (O'tror – hozirgi Aris) va Ozarboyjon, Armuniya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Ya'juj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgabo'yi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o'rtasidan kesib o'tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim Sharqda Ya'juj mamlakatining shimolidan boshlanadi,

## Ахмад Фарғоний

so'ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so'ng Jurjon dengizining shimolidan, so'ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o'tadi va G'arb dengizida (Atlantika) tugaydi".

Keltirilgan parchadan ko'rindan diki, Farg'oniy katta kenglikdagi o'lkalarni tavsiflagan bo'lsa ham, o'zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta'kidlash kerakki, Farg'oniyning rub'i ma'mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo'lib, har xil afsonaviylikdan xolidir. Chunonchi, u Ya'juj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy mamlakatni emas, balki hozirgi Mo'g'ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

Asarning anchagini qismini astronomik asboblar yasash va ulardan foydalanish metodlari, xususan, astronomik kuzatuvlar uchun eng zarur asboblardan biri — Quyosh soatining bayoni egallaydi.

Ahmad Farg'oniying “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asari o’rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimgi yunon ilmi, jumladan, astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali ma’lum bo’ldi. Bu asarning lotincha tarjimasi ilk bor 1493-yilda toshbosma usulida nashr etildi.

1669-yilda mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Galius Ahmad Farg'oniy asarining arabcha matnini yangi

lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng Ahmad Farg‘oniyning shuhrati yanada ortdi.

**Ahmad Farg‘oniy asarlari**

**“Usturlab yasash haqidagi kitob”**

(qo‘lyozma nusxalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda).

**“Usturlab bilan amal qilish haqidagi kitob”** (birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston) saqlanmoqda).

**“Farg‘oniy jadvallari”** (qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston) saqlanmoqda).

**“Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash risolasi”** (qo‘lyozmasi Gota va Qohirada saqlanmoqda).

**“Quyosh soatini yasash haqida kitob”** (qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanmoqda).

**“Al-Xorazmiy “Zij”ining nazariy qarashlarini asoslash”** asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo‘lyozmasi topilmagan<sup>1</sup>.

Shuningdek, Farg‘oniyning asarlari qatoriga **“al-Madhal ala ilmi hay’atilaflok va harakatin-nujum”** (“Falaklarning ko‘rinishi va yulduzlar harakati ilmiga kirish”)<sup>2</sup> ham kiradi.

Farg‘oniyning bu ro‘yxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o‘rganilmagan. Shubhasiz, ular o‘rganilib tahlil qilinishi bilan Farg‘oniy ijodining yangi qirralari ochiladi. Va olimning o‘rtas asrlarda, undan keyin Sharq va G‘arbda bu qadar mashhur bo‘lishi sabablari ham ayon bo‘ladi.

<sup>1</sup> To‘plovchi va mas’ul muharrir M.M. Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzları (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). A.Ahmedov. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001. B.49.

<sup>2</sup> O‘rtas Osiyo olimlari qomusi. -Toshkent, 2007. B.279.


Ahmad Farg'oniy risola ham yaratgan, masalan, Ptolomeyning "Almagest" asarining sharhiga bag'ishlab "Almagestning kirish bo'limlari haqida o'ttiz bobdan iborat risola" nomli asar yozgan.

Ahmad Farg'oniy "Usturlab yasash haqida" nomli asarida stereografik proeksiya (sferaning biror  $S$  nuqtasidan shu nuqtaga diametrial qarama-qarshi  $S'$  nuqtadagi urinma  $\alpha$  tekislikka proeksiyasi) haqida va uning xossalarini bayon qilgan:

I. Sferada yotgan aylanalar  $\alpha$  tekislikka aylanalar ko'rinishida yoki aylanalar sfera markazidan o'tsa, to'g'ri chiziqlar ko'rinishida proeksiyalanadi.

II. Stereografik proeksiyada sferada yotgan egri chiziqlar orasidagi burchaklar  $\alpha$  tekislikka proeksiyalangan egri chiziqlar orasidagi burchaklarga teng bo'ladi.

III. Sfera S va  $S'$  o'tgan diametr atrofida burilganda  $\alpha$  tekislik ham shu nuqta atrofida xuddi ana shu burchakka buriladi.



Bu xossalardan Farg'oniygacha yashagan ba'zi olimlar (masalan, Ptolomey) asarlarida ham uchraydi<sup>1</sup>. Ammo ular bu xossalarning isbotini bermagan. Farg'oni yuqorida aytilgan asarida birinchi xossaning to'liq isbotini keltiradi. Bunda u quyidagi lemmaga asoslanadi: faraz qilaylik, aylana to'g'ri chiziqqa proeksiyalanganda aylanananing M va N nuqtalari to'g'ri chiziqning  $M'$  va  $N'$  nuqtalariga o'tsin.

У holda  $SMN = SN'M'$ ,  $SNM = SM'N'$ .

Samoviy jismlar harakatini Nyuton va Laplas massa harakatining dinamikasi shaklida. Kepler esa geometrik yo'sinda bayon etgan bo'lsa, Farg'oniy ulardan bir necha asr avvalroq jadvallar qonuniyati shaklida izohlagan. Jadvalning fazilati va imtirozi — uning jonli mushohadaga ochiq ekanligidir.

Stereografik proeksiyalar nazariyasining kashfiyotchisi ham Farg'oniydir. Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning, binobarin, umuman Osmonning bo'lajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul astronomiya fanining umumiyligi usuli sifatida qabul qilib olingan bo'lsa, jahon munaj-jimlik fanining bunday umummaxrajga kelishida Farg'oniy topgan va asoslagan

usturlab (Ovrupachasiga astrolyabiya) asbobining ahamiyati katta bo'lgan. Chunki osmon gumbazida mavhum ravishda joylashtirilgan meridian, ekvator, ekliptika, azimut, koordinata o'qlari va tizimlarining, burchaklarning, nuqtalarning doira asbobga proeksiyalarini, ya'ni fazoviy shakllarning tekislikdagi tasvirini tushirish fanga, astronomiyaga, dengizchilarga ancha qulayliklar tug'dirgan. Bu asbob ilgari ham bor edi. Lekin uning nazariyasini faqat Farg'oniy kashf etdi. Bu kashfiyotning ahamiyati va ilmiy izchillik bilan asoslanganligini shundan ham bilsak bo'ladiki, Farg'oniy davridan qariyb ming yil keyin, XVIII asrda buyuk matematik Eyler bu nazariyani jo'g'rofiy xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va "Rossiya imperiyasining bosh jo'g'rofiy xaritasi"ni

tuzishda ishlatdi. Bu nazariya kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevkliz geometriyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrani-Kleyn proeksiyasi, kosmik geodeziya va kosmografiyaning zaminlarida yotadi<sup>1</sup>.

### **Ahmad Farg'oniy dunyo olimlari nigohida**

Garchi Ahmad Farg'oniy haqida ma'lumotlar juda oz bo'lsa-da, ammo o'rta asrlarda Sharq ilmiy dunyosida uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII – XIII asr)lar, Abul Faraj Bar Ebrey (XIII – asr) va Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq olimlari uning nomini o'z asarlarida qayd etganlar.

---

<sup>1</sup> Mustaqillik (Izohli ilmiy-ommabop lug'at). –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyyati, 1998. B.10.

Ahmad Farg'oniy

---

Yevropa Uyg'onish davrining mashhur olimi Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma'ruzalarni Ahmad Farg'oniy asarlari asosida o'qigan. Uning nomi Dante (XIV asr) va Shiller (XVIII asr) tomonidan tilga olinadi.

Yevropa olimlaridan D'alamber, Brokkelman, X. Zuter, I.Y.Krachkovskiy, A.P. Yushkevich va B. A. Rozenfeldlar Ahmad Farg'oniyning ilmiy merosiga yuqori baho bergan.

### **Ahmad Farg'oniy merosi va mustaqillik**

Ahmad Farg'oniyning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish O'zbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom

Karimov tashabbusi bilan Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg'ona shahrida Ahmad Farg'oniy nomi bilan ataladigan istirohat bog'i yaratildi va qadimiylar Quva shahrida Ahmad Farg'oniy haykali o'rnatildi. YUNESKOning 1998-yildagi tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori(1997-yil 27-noyabr)ga ko'ra alloma hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko'rgazmalar o'tkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi. Farg'ona shahridagi maydon, ko'cha, mакtablarning biriga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

"Bugungi kunda odamzodning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o'zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to'ladi".

Albatta, ulug' ajdodimiz — Ahmad Farg'oniy insoniyat tarixidagi ilk uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandası, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Uning bebaho merosi o'z davri olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma'lum.

Allomaning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari o‘n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir.

Yevropada Alfraganus nomi bilan mashhur bo‘lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi-sharifi Yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O‘n oltinchi asrda Oydagи kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-yili nashr qilingan “Selenografiya” kitobida Oydagи kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent. 2008, B.41-42.

## Ahmad Farg'oniy hayotidan ibratli voqealar

Ahmad mahalla masjididagi maktabda o'qir edi. O'qituvchi imom Ahmadning qobiliyatini sezdi va uni rivojlantirmoq zarur ekanligini bolaning otasiga aytmoqqa jazm qildi. Bir kuni juma namozidan so'ng odamlar tarqalishayotganida imom Ahmadning otasi Muhammadni qolmoqqa taklif qildi. Ular imomning masjiddagi xonasida quyidagi mazmunda suhbat qurdilar:

- O'g'lingiz Ahmad xo'b iste'dodli bola. Uni tahsil uchun dorul-ulumga yubormoq kerak. Bu to'g'rida o'ylab ko'r-ganmisiz? — dedi o'qituvchi Muhammadga.
- Janobingizning husni tavajjuhlaridan g'oyat minnatdorman. Men bu to'g'rida

o‘ylagan edim. Ammo bu shaharlarning birortasida dorul-ulum mavjudmidir?

— Bor, — dedi o‘qituvchi, — lekin Ahmad xalifalikning poytaxti dorus-salom

— Bag‘dodda tahsil olmog‘i kerak. Bolaning yuksak qobiliyati o‘sha yerda munosib kamol kasb etajak.

Muhammad o‘ylanib qoldi. O‘g‘li hali yosh, endi o‘n beshni to‘lg‘azib, o‘n oltiga qadam qo‘ydi. Uzoq, o‘zga yurtda bola ne hollarga tushadi, ko‘zlangan maqsad amalga oshadimi, musofirlik, g‘ariblikda ovora bo‘lib qolmaydimi?

O‘qituvchining gapida jon bor. Agar Ahmad yaxshi bilim olsa, olim, fozil bir kishi bo‘lib yetishadi. Bu yerda esa bolani qanday taqdir kutmoqda? Hozir Farg‘ona atroflari notinch. Muhammad bundan o‘n besh-yigirma yil burun bo‘lib o‘tgan

voqealarni esga oldi. 775-785-yillar orasida Farg'ona xalqi islom fotihchilariga qarshi bosh ko'tardi. Qo'zg'olonchilar Koson shahrini egallab, uni o'zlariga markaz qildilar. Qo'zg'olon keng yoyilib, butun Farg'onani qopladi. Xalifa Mahdiy qo'zg'olonchilarga qarshi Ahmad ibn Asad boshchiligidagi qo'shin yubordi. Qonli urushlar bo'ldi. Ko'p odam qirildi. Shahar va qishloqlar fathchilar tomonidan yondirildi, Xalq qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostirildi. Ana shu voqealardan ko'p o'tmay, Ahmad dunyoga kelgan edi. Farg'ona o'lkasi hamon o'sha urushlar dudini sezadi. Arab hokimiyati asta-sekin o'z dini — islomga da'vat etmoqda. Shahar aholisidan ko'pi islom dinini qabul qilgan edi. Ammo atrof qishloqlarda yashovchilar, ayniqsa, ko'chmanchi xalqlarning qarshiligi

kuchli. Ular hatto shaharlarga hujum ham qilib turadilar. Shuning uchun O'sh yaqinidagi tog' ustiga ravot qurilgan. Islom askarlari bu tog'dan turib ko'chmanchi turklarning harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatadilar.

Ahmadning balog'at yoshi keldi. Uni islom lashkari safiga tortmoqlari mumkin. U holda bola ur-sur, sur-urga qo'shilib ketadi, biror jangda halok bo'lishi ham hech gap emas. Muhammad kechasi bilan shu haqda o'ylab chiqdi. Ertasi ertalab nonushtadan so'ng Ahmad o'qishga ketgach, Muhammad xotiniga o'z qarorini bildirdi: Ahmad Farg'onani tark etib, Bag'dodga ketadi. Bag'dodda ilm-tahsil oladi. Bola katta bo'lib qoldi. U mustaqil bo'lmog'i, peshonasiga na yozilgan bo'lsa, shuni ko'rmog'i kerak. Bu gapni eshitib,

Ahmad Farg'oniy

onaning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. Ammoning qaroriga qarshi bir nima deb bo'ladimi?!

Oradan birmuncha fursat o'tdi. Bir kuni tong payti ota va ona o'g'illari Ahmad bilan xayrashdilar. Ahmad katta karvonga qo'shilib, Bag'dod sari yo'l oldi<sup>1</sup>.

**1998-yil. Mart.** Toshkentda Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda olimlar, mutaxassislar, talabalar, Toshkentdagi Misr madaniy markazining xodimlari hamda diplomatik korpus vakillari qatnashdilar.

**Aprel.** Dehlida «Ahmad Farg'oniy va uning davri» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda

---

<sup>1</sup> Qayumov A. Ahmad Farg'oniy. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990. B.7.

Hindistonning yetakchi olimlari, diplomatik korpus vakillari, jurnalistlar, shuningdek, mazkur mamlakat o'quv yurtlarida ta'lif olayotgan o'zbek stajyorlari, aspirantlari va talabalari ishtiroy etishdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh assambleyasi Xalqaro astronomiya uyushmasi va YUNESKO (BMTning ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti) taklifini ma'qullab, 2009-yilni Xalqaro astronomiya yili deb e'lon qildi. Shu munosabat bilan astronomiya fani yutuqlarini butun dunyo bo'ylab keng targ'ib etish maqsadida «Yerdan koinot sari» loyihasi asosida qator mamlakatlarda ko'rgazmalar tashkil qilindi, ko'chalarga ko'chma teleskoplar o'rnatilib,

Ahmad Farg'oniy

---

odamlarning koinotni kuzatishlariga imkon berildi, eng arzon teleskoplarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

### **Ahmad Farg'oniy haqidagi adabiyotlar**

1. Кары-Ниязов Т. Н., Астрономическая школа Улугбека, М.-Л., 1950
2. Nosirov A., Hikmatullayev X., Ahmad Farg'oniy, T., 1966.
3. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar), 1-kitob, T., 1995.
4. Ahmedov A. Ahmad Farg'oniy, T., 1998.
5. Abdulahatov N., Hoshimov B. Ahmad Farg'oniy. "Farg'ona" nashriyoti, 1998.
6. Buyuk allomalarimiz. — T.: "Toshkent islom universiteti nashriyoti". 2002-y.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent. 2008.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005, 9-t.
3. O'rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent, 2007.
4. Mustaqillik (Izohli ilmiy-ommabop lug'at). –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririysi, 1998.
5. O'zbekiston: islom obidalari. Fotoalbum –T.: O'zbekiston, 2002.
6. To'plovchi va mas'ul muharrir M.M. Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). A.Ahmedov. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.

Аҳмад Фарғоний

7. Abdulahatov N., Hoshimov B. Ahmad Farg‘oniy. “Farg‘ona” nashriyoti, 1998.
8. Qayumov A. Ahmad Farg‘oniy. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1990.
9. Buyuk allomalarimiz. — Т.: “Toshkent islom universiteti nashriyoti”. 2002
10. [http://fan.zn.uz/352;  
w\\_w\\_w.\\_a\\_d\\_i\\_b\\_l\\_a\\_r.\\_u\\_z/\\_  
index.php?name=Alloma&id=3](http://fan.zn.uz/352;w_w_w._a_d_i_b_l_a_r._u_z/_index.php?name=Alloma&id=3)

**“МУТАФАККИРЛАР”**  
илемий-оммабоп рисолалар түркуми

**Сарвархұжа БОБОЕВ**

**АҲМАД  
ФАРГОНИЙ**

Мұҳаррир *Ақбар ЗАМОНОВ*  
Бадий мұҳаррир *Ақбарали МАМАСОЛИЕВ*  
Техник мұҳаррир *Олмос МУХТОРОВ*  
Мусақхық *Гулргүз АТХАМОВА*  
Сахифаловчи *Хусан САҒАРАЛИЕВ*

Босишга 07.07.2010 рухсат этилди.  
Бичими 60x84 1/32. Ҳажми 3 б.т. Адади 10 000.  
Буортма № 031. Баҳоси келишилган нархда.

Оригинал макет  
«TAFAKKUR» нашриёти  
медиа марказида тайёрланди.

Рисола «Ўзбекистон» НМИУ ҳамда «TAFAKKUR»  
нашриёти босмахоналари ҳамкорлигига чоп этилди.

«TAFAKKUR» нашриёти.  
[www.tafakkur.uz](http://www.tafakkur.uz)  
E-mail: maktub@tafakkur.uz  
Телефонлар: (+99871) 271-23-42, 440-37-16, 401-36-40

Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,  
Чилонзор кӯчаси, 1-уй